

STATIVLIKNI IFODALOVCHI ELEMENTLARNING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARI

To'qboyeva Malohat Bahodirovna

SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada stativlikning ifodalovchi elementlarning leksik-semantik gurhlari aniqlandi. Asosan stativlikni ifodalovchi elementlarning fe'llar orqali ifodalanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fe'llar, stativ elementlar, stativ fe'llar, holat kategoriyasi, morfologik struktura.

Stativlikning ifodalovchi elementlarning leksik-semantik guruhlariga ajratadigan bo'lsak, ularning sintaktik vazifalarini ham bajargan bo'lamiz. Stativlikni bildiruvchi so'zlarning ko'pchilik qismi fe'llar orqali ifodalanib, ular orqali ifodalanib o'zlari esa mustaqil ma'no kasb etib keladi [5, 96]. Fe'llar o'z navbatida ikki turga bo'linadi: dinamik va stativ fe'llarga. Dinamik fe'llar bu doimo harakatni ifodalovchi fe'llar bo'lib, u shaxs yoki predmetning harakati natijasida yuzaga keladi. Stativ fe'llar esa shaxs yoki predmetning holatidan kelib chiqqan holda ifodalanadi.

Masalan: be agitated

To be obligated

Be at a lost

State the value

Bu so'zlarning aksariyat qismi **to be** fe'li yordamida ifodalanadi. Ularni leksik-semantik guruhlariga ajratgan holda tatbiq etadigan bo'lsak, har bir ifodalanadigan so'zning lugaviy va semiotik ma'nosi kelib chiqadi. Fe'llar grammatikada eng ko'p o'rganiladigan turkum bo'lib, uni asl leksik-semantik ma'nolari tilshunolarimiz tomonidan turlicha o'rganilib chiqilgan. Holatni bildiruvchi semantik birliklar fe'llarni o'zida qamrab olgan holda ularni gapda faollashtiradi [4, 35].

Masalan: *It was the crying from down below that woke me up that hot night.*

It was the crying → *It felt cryness* → *It is in the state of cry*

Stativlikni ifodalovchi sintaksemalarni tilshunoslarimiz aksariyat hollarda morfologik stukturaga ko'ra holat kategoriyasini ko'rsatuvchi so'zlar a-affiksi yordamida yasaladi deb ta'kidlaydilar. Biroq sintaktik funksiyaga ko'ra holatni ifodalovchi so'zlar a- affiksiz ham kelishi mumkin, shunday bo'lgan holatda ham gap qurilishidagi subyektning yoki predmetning holatini ifoda eta oladi. Hamda fe'llar yordamida buni ifoda etadi:

Masalan: *The predecessor alive – the living predecessor*

The house afire – the burning house


Ropes aslant – slanting ropes

Ingliz tili gap qurilmasida sintaksemalarning sintaktik birliklarini stativlik kategoriyasi bilan uning fe'l bilan qo'llanilgan jihatlarini inobatga olishimiz hamda gaplarda ifodalanishini ko'rib chiqishimiz lozim.

Masalan: *John is afraid of dogs*

Yuqorida keltirganimizdek stativ sintaksemalar a- affiksiz ham gap tarkibida qo'llanishi mumkin.

Masalan : *He was mad going up every Sunday.*



___ NP1 ___ NP2 ___ ND

Pnp auxVP2 Adv

“Going up” fe'lli birikmasi holatni bildirib qolmasdan undagi shaxsning ruhiy jihatdan tahlil ham kilib kelmoqda. Agarda gapimizni transformatsiyaga soladigan bo'lsak, “going up” fe'lli birikmasini “alone” stativ ot birikmasi bilan almashtirishimiz mumkin.

Masalan: *He was mad going up every Sunday* → *He was alone every Sunday.*

Bunday holda shaxsning nafaqat ruhiy holatini yoki harakatini ifodalabgina qolmay uni jismoniy jihatdan ham yolgizligini ko'rsatib kelishi mumkin.

Masalan: *I was bitterly ashamed of my weakness.*

“was ashamed” va “was afraid” elementlari predmetning belgisini bildirib, fe'l orqali gapda ifodalanib asosiy gap bo'lagining holatini ko'rsatib kelmoqda. Sintaksemalarni obyektiv ko'rinishini holat kategoriyasida yadro predikativ 2 pozitsiyasida **in a state of** bilan **feel** felini qo'shimcha transformatsiya yordamida isbotlash mumkin:

Masalan: *I was bitterly ashamed* → *I felt bitterly ashamed* → *I was in a state of bitter shame.*

Scarlet was afraid → *Scarlet felt afraid* → *Scarlett was in a state of fear.*

Analogik jihatdan elementning transformatsiyaga solishimiz natijasida unda kvalifikativ stativlik mavjudligini guvohi bo'lamiz. Fe'llar bilan aloqada bo'lgan holatni bildiruvchi so'zlar nafaqat fe'l bilan aloqadorligini bildirgan holda stativlikni vaholanki, sintaksema birligini ham ifodalaydi.

Stativlik kategoriyasida stativlikni ifodalovchi sintaksemalarni o'rganayotgan bir vaqtda holat kategoriyasini bildiruvchi sintaksemalarning fe'l bilan aloqador jihatlari hamda stativlikni anglatuvchi sintaksemalarning fe'l sifatida tuslanishiga to'xtalmay o'tolmaymiz [3, 74]. Fe'l va fe'l birikmalari holat kategoriyasi bilan yadro predikativ 2 pozitsiyasida kelganda, holat belgisini bildiradi [1, 132].

Masalan: *Martin was asleep* — *Martin was in a state of sleeping.*

She was still sleeping → *She was still in a state of sleeping.*

Berilgan misollardagi elementlarni fe'lga bog'lamasdan holatni yuzaga keltira olmaymiz. Fe'l insonning uning ichki dunyosi orqali harakatlar muttanosibi sifatida talqin etadi. A- prefiksisiz kelgan fe'llar mavjud bo'lib, ular ham gapda shaxsning ruhiy va jismoniy harakatlarini ifodalash maqsadida qo'llaniladi.

Masalan: *be agitated, be exited, be worry, be surprised, angry, devote, state the value of, be aware of, be joined, be united, fade, stoop, get wet, to be obligated, promise, to agree, to appear, be at a lost, undergo occure, be on the tramp, to be lazy, idly ones time away, be effaced, be gummed, be enlightened, be defeated, be conquered and etc.*

Holat kategoriyasini fe'l bilan bog'liqlik jihatlari orqali yasalgan so'zlarni konstruksiyaga solib quyidagi natijalarga erishishimiz mumkinligini ko'ramiz:

Masalan: *Now he was alive on a doctor's income.*

She was alive in and by her own self-esteem

You will be alive to regret it.

Mazkur maqolada asosan sintaktik sathda gap qurilmasida stativlikni ifodalovchi leksik birliklarning asosiy bazasiga karatilgan bo'lib, holatni ifodalovchi birliklar turli xil so'z turkumlar yordamida ifodalanishi aniqlandi va holat yoki stativ sintaksemlarni gap qurilmasida ifodalanishi asosan sifat, fe'l, ravish kabi turkumlar yordamida berilishi mumkinligi isbotlandi. Ularni umumlashtirib olganimizda stativ sintaksemaning asosiy leksik bazasi hisoblanib, shaxs, narsa, predmetlarning holatini ifodalashini taminlovchi leksik birliklarning yigirma xil ifodalanishi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1973.-284bet
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.-88b.
3. Jamolxonov X. Xozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Mirtojiev M. Xozirgi uzbek tili. Toshkent: Ukituvchi, 1992.-168b.
5. Muxin A.M. Morfologicheskie i sintaksicheskie kategorii \ \ Issledovaniya po Yazikaznaniyu: K 70- letiyu chlena- korrespondenta RAN